

Axrorova Mahina Avazovna

Rahmatova Dilfuza Ahmedovna,

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Qahhorova Marjona Ikromjonovna

Samarqand shahar 11-maktab o'qituvchisi

Tel: (91) 5502 10 15

Annotatsiya: Maqolada jadid adabiyoti namoyandalari ijodida Alisher Navoiy an'analari o'rganilgan, Navoiy an'analari masalasiga chuqur yondoshish, uni jadid adabiyoti namoyandasi Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodidan topib, Navoiy g'azallariga bog'langan naziralar misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, ilm, nazira, mumtoz, adabiy an'ana o'xshatman, fikr, mehr.

Аннотация: В статье исследуются традиции Алишера Навои в творчестве джадидских литературных деятелей, анализируется глубокий подход к проблеме Навоийской традиции, найденный им в творчестве джадидского литературного деятеля Хамзы Хакимзаде Ниязи, на примерах, связанных с Навоийскими газетами.

Ключевая слова: Джадид, наука, Назира, классика, литературная традиция, мысль, доброта.

Abstract: The article explores the traditions of Alisher Navoi in the work of the Jadid literature exponent, takes a deep approach to the issue of Navoi traditions, finds it from the work of the jadid literature exponent Hamza Hakimzoda Niyazi and analyzes the Nazira attached to the ghazals of Navoi on the basis of examples.

Keywords: Jadid, science, nazira, classical, literary tradition liken, thought, kindness.

O'zbek mumtoz adabiyotida Navoiy an'alarini o'zida yaqqol ifodalovchi materiallardan yana biri naziralardir. Ma'lum bir shoirning asariga o'xshatma tarzida (vazni, qofiyasi, radifi saqlangan holda) yozilgan naziralar Sharq poeziyasiga xos odat bo'lib, u qadim vaqtlardan beri mavjuddir. Naziri, odatda, o'tmishning atoqli shoirlari asariga nisbatan yozilar va javob aytish, kuch sinab ko'rish, ijodiy musobaqa qilish mazmunini anglatar edi.

Sharq adabiyoti tarixi bilan chuqur tanish bo'lgan professor Ye. E. Bertels o'zining Nizomiy, Navoiy, Jomiy haqidagi monografiyalarida va boshqa asarlarida Sharq adabiyotida keng qo'llangan nazira usuli haqida anchagina mulohazalarini bayon etadi. E. Bertelsning fikriga ko'ra nazira oddiy taqlidchilikdan iborat bo'lmay, uning uchun ijodiy element xarakterlidir. "... Nazirani taqlid deb qarash to'g'ri bo'lmaydi-deb yozadi E. Bertels, -chunki bu hodisaning asl mohiyati taqlidchilikda emas, balki shoir tomonidan mavzuga kiritilgan yangilikdir"¹.

Xullas nazira va taxmis usuli XV asrda qanday qoidalar asosida tug'ilgan bo'lsa, XX asrda ham shunday xususiyatlarga ega edi. Shuning uchun adabiyotimiz taraqqiyotining keying davrklarida ham, mumtoz davrlarda bo'lgani kabi, nazira yozish va muxammas bog'lash ishi oddiy

¹ Е. Э. Бертельс. Роман об Александре. М.-Л., 1948, стр. 115.

taqlidchilik ishi emas, balki o`da ijodiy unsurlarni aks ettirishi lozim bo`lgan adabiy usul hisoblanadi. Jadid shoirlar o`z ijodlarida mumtoz adabiyotdan qolgan bu an`anani o`zining tarixiy davr mazmuni bilan boyitib, uni muvofaqqiyat bilan davom ettirdilar.

Bundan tashqari Navoiy g`azallarining radiflarini takrorlab, g`azallar yaratganlar. Navoiyning “Judo” radifli g`azali:

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to`ti takallum² shakkaristondin judo³.

Jadid adabiyoti vakili Hamza Hakimzoda Niyoziy ham “Judo” radifli g`azalini yozadi:

Bu na yanglig` mojarodur husni xubondin judo,
Ma`shuqi ushshoqdan ushshoqi jonondin judo.

Gul tikonidin, Zulayxo Yusufi mahro`ydan,
Zor Majnun Laylidan, bulbul guklistondan judo⁴.

Navoiy g`azalida yoridan judo bo`lish og`irligini bulbul gulistonidan ayrilsa kuylay olmasligini, to`ti esa ayrilsa tilde qolishini ta`kidlaydi, xuddi shunday o`xshatishni biz Hamza g`azalida ham uchratamiz:

Dod dastingdan falak, charxing buzilmay qolmasun,
Boru umrum bo`ldi to`ti shakkarafshondan judo⁵.

Hamza yoridan judo bo`lib bekaslik, g`ariblik, bechoralikdan dod desa, Navoiy yordan judo aylaguncha, jonimdan judo qil, deb aytad, hijron o`ilmdabn ham achchigligini ta`kidlaydi..

Hajr o`lumdin talx⁶emish, mundin so`ng, ey gardun, meni
Aylagil jondin judo, qilg`uncha jonondin judo⁷.

Har ikki ijodkordanda bir xil o`xshatishni uchratamiz, bundan ko`rinib turibdiki, Niyoziy Navoiy g`azallaridan ta`sirlanib o`zi ham chiroyli g`azal namunalari yaratgan. Bunday o`xshash g`azallarni bu iki ijodkor ijodida ko`p kuzatishimiz mumkin:

Ey alifdek qomating mayli buzulg`on jon aro,
Ganji husnung javhari bu xotiri vayron aro⁸.

“Aro” radifli g`azalni Hamza Hakimzoda davom etib
Ey husn elin pur fitnasi mahbubi davronlar aro,
Bormi sanidek mahliqo janiatda rizvonlar aro.

Gulgun yuzingni rashkidin ko`ksida yuz bing dog` ila,
Boq lola maskan ayladi ko`hu biyobonlar aro.

Navoiy yuqoridagi baytida yorning qomatini “alif”ga o`xshatib, husnini “ganj” boylikka o`xshatsa, Hamza Hakimzoda Niyoziy yorning husnidek husnni hatto Jannat bog`larida ham

² Takallum-so`z aytmoq

³ Alisher Navoiy Vafo qilsang: G`azallar -T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2004. – B. 15.

⁴ Ҳамза Ҳақимзода Ниёзий. Замон ичра. Сайланма. Шеърый асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 262.

⁵ Ҳамза Ҳақимзода Ниёзий. Замон ичра. Сайланма. Шеърый асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 262.

⁶ Talx-achchiq

⁷ Alisher Navoiy Vafo qilsang: G`azallar -T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2004. – B. 15.

⁸ Alisher Navoiy Vafo qilsang: G`azallar -T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2004. – B. 215.

yo`ligini ta`kidlaydi. Yuzining gulgunligidan rashak qilib hatto lola tog`ga ko`chib ketgan den chiroyli o`xshatmalat asosida beradi.

Yana bitta shunday radifli Navoiy g`azaliga e`tibor qilsak:

Kimki ko`rsa mushki nob ul sunbuli serob aro,
Bir qaro tufrog` degaykim, tushti mushki nob aro.

Qoshing ichra rishtai jonimg`a chirmong`on ko`ngul,
Ankabutidurki, aylabdur vatan mehrob aro⁹.

Ikki davr ijodkorlari yorning juda ham chiroyli tasvirlashda nozik so`zlarni topib o`rnida ishlatgan. Ikki qoshing jonimning “rishta”siga chirmangan, o`rnashgan, endi ko`nglim ular uchun vatan, desa, yana bir baytida Navoiy yorning labini ko`rib unga mehr qo`yganini aytadi:

Ul labi unnobgun¹⁰ ko`nglumga ekkani tuxmi mehr,
Ko`nglum ichra yoshurun durdonadek unnob aro¹¹.

Yorning labi Navoiyning ko`ngliga mehr urug`ini ekkani bo`lsa, Hamza Hakimzoda Nizomiy yorning labi hajrida hatto bulbul har tong bo`stonlarda faryod qiladi.

Bechora bulbul g`unchai maygun labingni ko`yida,
Faryod urar qonlar yutub, har subh bo`stonlar aro¹².

Navoiy an`analarini davom ettirib, fikriy takomilga erish, uning g`oyasini o`z davriga mos tarzda bayon etishni yana bir “Deb” radifli g`azalida kuzatishimiz mumkin:

Kezarmen ko`yida yillar nazar holimg`a solg`ay deb,
Agar o`ltursa, qonim rangi tufrog`ida qolg`ay deb¹³.

Navoiy lirik “men” yorining nazari tushishi uchun uning atrofida parvona kezishini, agar o`sha yerda vafot etsa, hech bo`lmaganda yor tuprog`iga qoni to`kilishi aytsa, Hamza Hakimzoda Niyoziy “men”i esa, yorning oyog`i ostida ostona bo`lishdan xursand bo`lishini ta`kidlaydi.

Ko`p shod o`luram mahvasi shoxona ekanman deb,
Sadek pari ko`yida devona ekanman deb.

Rahm aylamasang garchi har dam uraman o`zni,
Ul sham`n jamolingga parvona ekanman deb.

Yuz yil bani kuydursang, shukr etg`usiman, jono,
Hipjring o`tig`a man ham so`zona ekanman deb.

Bing turli jafu solsang, qo`rqmam sani zulmingdan,
Ketsa boshimi bergum, qurbona ekanman deb.

Xurram o`luram dilbar tepsang gahi boshimga,
Yorim oyoqi ostiga ostona ekanman deb¹⁴.

⁹ Alisher Navoiy Vafo qilsang: G`azallar -T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2004. – B. 268.

¹⁰ Unnobgun-chilonjiyda rangli

¹¹ Navoiy o`sha asar

¹² Ҳамза Ҳақимзода Ниёзий. Замон ичра. Сайланма. Шеърый асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 262.

¹³ Alisher Navoiy Vafo qilsang: G`azallar -T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2004. – B. 268.

¹⁴ Hamza o`sha asar

Shunday qilib jadid adabiyoti taraqqiyoti o`z taraqqiyoti yo`lida mumtoz adabiy merosga va Alisher Navoiy ijodiga muhim adabiy manba sifatida murojaat qildi, uning ijodiy-estetik prinsiplaridan, badiiy usullaridan eng yaxshi unsurlarni qabul qilib, ularni yangi tarixiy sharoit mazmuni bilan boyitgan, rivojlantirgan holda davom ettirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. E. Э. Бертельс. Роман об Александре. М.-Л., 1948, стр. 115.
2. Alisher Navoiy Vafo qilsang: G`azallar. -T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2004.- B. 268.
3. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Замон ичра. Сайланма. Шеърый асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 262.

